

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI (XITOYNING GUANDUN PROVINSIYASI MISOLIDA)

Prognozlashtirish va
makroiqtisodiy
tadqiqotlar instituti

Tayyorladi:
Sh. Ochilov,
Institutsional o'zgarishlar va
tadbirkorlikni rivojlantirish
loyihasi
katta ilmiy xodimi


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorij tajribasi (Xitoyning Guandun provinsiyasi misolida)

Biznes muhitining rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

- Informatsion – biznesning aholi ehtiyojlari, bilimlari va resurslar haqida yetarli malumotga ega emasligi (nega quyonchilik rivojlanib ketmayapti)
- Institutsil – rasmiy o‘yin qoidalari va shartnomalardan foydalanmaslik. Kichik biznesda o‘zini-o‘zi band qilganlar ko‘p hollarda yuridik xizmatlardan foydalanmaydi.
- Infratuzilmalar – transport infratuzilmasi, suv, elektr energiyasi, internet tarmoqlariga ularish cheklanganligi.
- Bilim – Mavjud resurslarni qayta ishlash imkoniyatlari va qayta ishlash vositalari haqida bilimlarning yetarli emasligi. Qo‘silgan qiymat zanjiri ishtirokchilarini bilmasligi.
- Moliyaviy – kreditlash, sug‘urtalash, jamg‘arish va boshqa bank xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi.

Bu rivojlanish omillarni O‘zbekistonda muammo sifatida ko‘rshimiz mumkin. O‘zbekistonda Jahon banki tomonidan tadbirkorlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra, tadbirkorlar bir qancha muammolarni sanab o‘tgan.¹ Ular quyidagilar:

Korxonalar va tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi to‘siqlar



O‘zbekistondagi biznes muhitiga ta’sir etuvchi muammolar quyidagilardan iborat:

- soliq stavkalari;
- norasmiy iqtisodiy faoliyat olib boruvchi korxonalar;
- elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik;
- transport tizimi;

¹ World Bank Enterprise surveys <https://www.enterprisesurveys.org/en/data/exploreconomies/2019 /uzbekistan ?deliveryName=DM50663#2>

- malakali ishchi kuchining yetishmasligi;
- yer olish yoki ajratish bilan bog‘liq muammolar.

Xo‘sh, ushbu muammolarni qanday hal etish mumkin.

Xitoyda ham bir paytlar shunday muammolari bor edi, lekin 30 yil ichida mamlakat dunyo fabrikasiga aylana oldi. U bunga qanday erishdi? Xitoyda olib borilgan islohotlarni Xitoyning Guandun provinsiyasi misolida ko‘rib chiqamiz. Huawei, Tencent Holding, Ping An Insurance (Group) Co.of China Ltd. (PNGAY), Neptun, BYD, EVOC va Mingyang Wind Power, AION kabi yirik kompaniyalar dunyodagi eng yirik 50 ta kompaniya ro‘yxatidan o‘rin egallagan.²

Xitoy 1989-yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishgan va dunyo bozoriga ochilgan vaqtdan so‘ng Guandun iqtisodiyoti jadal rivojlandi. Guandun provinsiyasi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilgi YAHM miqdori 12,8 trillion yuan (1,9 trln. AQSH dollari) ni tashkil etgan. Bu jihatdan u 33 yildan beri mamlakatda birinchi o‘rinni egallab turibdi.³ Guandun iqtisodiyoti hajmi jihatidan Janubiy Koreya, Kanada, Avstraliya, Braziliya va boshqa ko‘plab rivojlangan mamlakatlar bilan bir qatorda turadi.

2021-yilda Guandundi xususiy korxonalar soni 14,7 millontani tashkil etdi va o‘sish 2020-yildagiga nisbatan 10,2 foizni tashkil etdi. Xususiy koroxonalar 6,78 trillion yuan qo‘silgan qiymatga erishdi. Bu avvalgi yildagiga qaraganda 7,8% ko‘p demakdir. U provinsiya iqtisodiyotining 54,5% ini tashkil etadi. Xususiy koroxonalarda band bo‘lganlar soni 45,2 million kishiga yetdi. Bu esa provinsiyada ish bilan band bo‘lganlarning 80% dan ortig‘i demak.

Siyosat va geografik joylashuv Guandunning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy sabablar emas

Dunyoda geografik jihatdan qulay joylashgan mamlakatlar ko‘p, lekin iqtisodiy o‘sishi geografik joylashuviga mos kelmaydiga davlatlar ham bor. Masalan, geografik jihatdan juda qulay joylashgan, ammo iqtisodiy rivojlanishi yuqori bo‘lmagan mamlakatlar qatoriga Liberiya, Marokash, Nigeriya va Afrikadagi boshqa mamlakatlarni kiritishimiz mumkin. Aksincha, sahroda joylashgan Isroiда iqtisodiyot, texnologiyalar, harbiy sanoati juda yaxshi rivojlangan. Yana bir misol: hududi asosan tog‘lar va tepaliklardan iborat Shveysariya dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. Atigi 8,6 million kishi istiqomat qiluvchi Shveysariya dunyoning iqtisodi eng yaxshi 20 ta mamlakati qatoriga kiradi. Yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga ulushi 91 991 AQSH dollarini tashkil etadi.⁴ U bu jihatdan Yevropada ikkinchi o‘rinda turadi, xalqi esa boy. Ko‘rinib turibdiki, qulay geografik joylashuv iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi asosiy omil emas.

Xitoyda “maxsus iqtisodiy hudud” maqomidan faqat Guandun provinsiyasidagi Shenchjen, Chjuxay, Shantou emas, balki Xitoy Syangani, Futszyan provinsiyasidagi Syamin, Shinjon-Uyg‘ur muxtor rayonidagi Qashg‘ar,

² Global ranking companies <https://companiestmarketcap.com/>

³ <https://news.cgtn.com/news/2023-01-12/China-s-Guangdong-Zhejiang-target-2023-GDP-growth-of-over-5--1gxnrbsYM6c/index.html>

⁴ World bank <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.CD?locations=CH>

Xaynan provinsiyalari ham foydalanadi. Xaynan mamlakatning eng yirik erkin savdo zonasi bo‘lib, hududga bilimli arzon ishchi kuchi hamda investitsiya mablag‘lari doimiy ravishda jalb qilingan. Bu minglab odamlarning sevimli joyi, deb aytish mumkin. Boshqa provinsiyalarning geografik qulayligi Guandunniidan qolishmaydi, lekin ularning rivojlanishi qoniqarli darajada emas. Nega faqat Guandun muvaffaqiyat qozonmoqda?

Guandunning iqtisodiy rivojlanishi boshqa hududlardan kelgan odamlar bilan bog‘liq. Ayrimlar Guandunning iqtisodiy rivojlanishi oqilona siyosat va geografik jihatdan qulay joylashuv tufayli, deb hisoblaydi va Guandunning rivojlanshida bilimli va arzon ishchi kuchi iqtisodiy mo‘jizalar yaratishdagi asosiy kuch ekanligini butunlay e’tiborsiz qoldiradi.

Guandundagi asosiy islohotlar infratuzilmalarni yaxshilashga jiddiy e’tibor qaratildi. Shu bois tadbirkorlarning o‘zлari ish faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun barcha qulayliklarga ega Guandunga oqib kela boshladi. Pirovardida maxsus ixtisoslashgan hududlar va qishloqlar vujudga kela boshladi.

Guandunda olib borilgan infratuzilma siyosati hozirgi kunda ham eng yaxshi islohotlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda qulay transport sharoitida Guanchjoudan Perl daryosi deltasining istalgan shahriga borish uchun uch soatdan kam vaqt ketadi. Biroq, islohotlar avvalida transport juda noqulay edi. 1980-yillarda Guandun provinsiyasi ma’muriyati birinchi navbatda ko‘priklar qurish uchun chet el kreditlaridan foydalandi. Bunda “ko‘priklarni saqlash, yo‘llarni qurish, ko‘prik va yo‘llardan foydalanish k uchun to‘lovlarni olish” bo‘yicha, ya’ni **pulli yo‘llar** qurish bo‘yicha yangi investitsiya tizimi yaratildi.

Yangi qurilgan temir yo‘l Guandun provinsiyasining markaziy va sharqiylarida joylashgan 17 ta hudud va qator shaharlarni bir-biri bilan bog‘ladi. U Xoychjou, Xeyuan, Chaochjou, Szeyan va Shantou shaharlarini bog‘lash muammosini hal qildi. Bu esa yo‘lning o‘tkazuvchanligini 5 barobar oshirdi, bir-biriga tutashgan temir yo‘llarning jami uzunligi 580 kilometrdan oshdi.⁵

Guandun provinsiyaga keluvchi oddiy ishchilarini oziq-ovqat va uy-joy bilan ta’minalashni tadbirkorlar o‘z zimmasiga oldi. Shunda provinsiyaga malakali va arzon ishchi kuchi oqib kela boshladi. Kompaniyalar oldida turgan asosiy muammolardan biri bu ishchilarini turar joy bilan ta’minalash edi. Ushbu muammoni hal etish maqsadida ularga ish joyidagi binolarda tunab qolishga ruxsat berildi. Bu “**uchtasi bittada**” loyihasi sifatida mashhur bo‘ldi.⁶ Bunda inshootlarning birinchi qavati omborga, ikkinchi qavati ofisga, uchinchi qavati esa turar joyga aylantirildi. 2000-yillarga kelib, provinsiyadagi ko‘pgina korxonalar va tadbirkorlar ushbu loyihadan foydandi.

2021-yilga kelib, Guandundagi jami 11 179 ta xususiy korxona “O‘n mingta qishloqqa yordam beradigan o‘n ming korxona” ijtimoiy himoya kampaniyasida ishtirok etdi va jami 15,8 milliard yuandan ortiq sarmoyaviy va 8000 dan ortiq yordam loyihalari amalga oshirildi.⁷

⁵ <https://www.jianshu.com/p/173d281c505d>

⁶ https://yjt.zj.gov.cn/art/2021/11/19/art_1228985953_59077390.html

⁷ <https://baijiahao.baidu.com/s?id=1752196679883702818&wfr=spider&for=pc>

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, savdo islohotidan keyingi besh yil ichida Guandun provinsiyasida har ming kishiga tegishli bo'lgan korxonalar soni o'sishda davom etdi. 2011-yil oxirida 13 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilga kelib 36 taga yetdi. Perl daryosi deltasi hududida ming kishiga 61 ta korxona to'g'ri kelardi. Xalqaro miqyosda taqqoslash nuqtai nazaridan, bu indeks rivojlangan mamlakatlarda taxminan 50 uy xo'jaligini, o'rtacha rivojlangan mamlakatlarda esa 20-30 xonadonni tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda provinsiya indeksi o'rtacha rivojlangan mamlakatlarning eng yuqori darajasidan oshib ketdi va Perl daryosi deltasi mintaqasi rivojlangan iqtisodiyot darajasiga yetdi.⁸

Xitoy Syangani va chet ellik xitoyliklar tomonidan Guandunga kiritilgan katta miqdordagi kapital va texnologiyalar Guandunning iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan biri

Guandunda maxsus iqtisodiy zona tashkil qilinganda, xorijiy sarmoyani jaib qilish nuqtai nazaridan qarasak, bunda xorijdagi xitoyliklar asosiy o'rinni egallagan. Chunki ular katta qismi guandunliklar edi. Bu boshqa provinsiyalarga qaraganda o'ziga xos afzallik bergen.

1980-yillarda amalga oshirilgan islohotlar va ochiq iqtisodiyotga o'tishi xorijlik xitoyliklarga Guandunning iqtisodiy yuksalishida ishtirok etish imkonini berdi. Ular korxonalarga sarmoya kiritish, kapital, asbob-uskunalar, yangi texnologiyalar va boshqalarni olib kelish uchun sa'y-harakatini ayamadi. Xorijlik xitoylar tomonidan maktablar, shifoxonalar, yo'llar, gimnaziyalar va hokazolar kabi turli infratuzilmalarga pul mablag'lari hamda texnika-texnologiyalar xayriya qilindi. Bu esa Guandunda tadbirkorlik ham ijtimoiy infratuzilmalarning rivojlanishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, Guandunning Xitoy Syanganiga qo'shni ekanligi, moliyaviy manbalarning Guandunga ham kirib kelishiga zamin yaratdi. Xitoy Syangan dunyodagi uchta yirik moliya markazlaridan biri va jahon savdo markazidir. Shenchjen Xitoy Syanganining doimiy sarmoyalari tufayli bugungi Shenchjenga aylangan. Xitoy Syangani va xorijlik xitoylarning Guandunga kiritgan sarmoyalarisiz, Xitoy dunyo fabrikasiga aylana olmas edi.

⁸ <https://baijiahao.baidu.com/s?id=1584865272628998247&wfr=spider&for=pc>

